

PIYOZNING KO`CHATI VA YANGI USULDA YETISHTIRISH AFZALLIGI VA HOSILDORLIGI

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti 2-bosqich tayanch doktoranti D.Sherimov
2-bosqich "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik"
ta'lim yo'nalishi talabasi Ishmuradova Aysapar*

O'zbekistonda hozirgi kunda ko'chat qilib ekiladigan sabzavotlar ochiq yerda 60 foizni, himoyalangan yerda esa 90 foizni tashkil etadi. Respublikamizda dehqon, fermer va tomorqa yer xo'jaliklari dalalarining yarmiga va himoyalangan yerlarga to'liq ko'chat usulida sabzavot ekinlari o'tqaziladi. Hozirda ko'chat usuli bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan: Ko'chat rivojlanishda dala o'simligidan 30-40 kun o'zib ketadi, bu esa erta hosil yetishtirish imkonini beradi. Ikkinchidan: Ko'chat evaziga issiqsevar sabzavot va ekinlarini(pomidor,tarvuz, qovun) mo'tadil iqlim sharoitida o'sishi mumkin.Uchunchidan: kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni ko'chat usulida oson tashkil etish mumkin. To'rtinchidan: Urug'(3-7 barobar bevosita dalaga ekishga nisbatan) tejaydi va yagonlash,qatqaloq,begona o'tlar qarshi kurashishga hojat qolmaydi. Albatta bu usul ayni vaqtda ko'pchilik asosiy sabzavotlarda bu usul ommalashib ulgurdi. Qoraqolpog'iston respublikasi sharoitida ham bu usuldan keng foydalanib qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olinib kelinmoqda. Lekin bu usuldan piyoz yetishtirish bo'yicha katta natijalarga erishilgan emas albatta buning sababi hanuz bu ekinda ushbu usul bo'yicha ilmiy ish olib borilmaganligidir.

Albatta biz tadqiqot ishlarimizda piyozning ko'chatlab yetishtirish usulini asosiy vazifalarimizning biri qilib oldik.

Yana shuni qo'shimcha qilishimiz kerakki; O'zbekistonda piyoz asosan uch muddatda ekiladi: bular erta bahorda – fevral oyining oxiri martning boshlarida; yoz-kuz fasllarida esa avgust – sentyabr oylarida va qish fasli oldidan – noyabr oyining oxiri dekabrning boshlarida ekiladi. Erta bahor faslida esa ekilgan piyoz yoz-kuz va qish fasli oldidan ekilgandan piyozga qaraganda qish faslining noqulay sharoitida yaxshi va sifatli saqlanadi.

Shuning uchun erta bahor faslida ekilgan piyozni qish faslida saqlaganda boshqalariga nisbatan samaraliroq bo'ladi.

Ko'chat qilib piyoz yetishtirish. Piyozning kechpishar navlari, bazan kóchatdan yetishtiriladi. Buning uchun piyoz urug'i kóchat qilishdan bir yarim ikki oylar ilgari maxsus ko'chatxonalarga, har bitta kvadrat metr moydonga 20-25 grammdan ivitilgan hamda nishlatilgan holda. Bunda piyoz urug'lari yirik,kasallanmagan va zararlanmagan bo'lishi kerak.

Maysalar ko'chatxonada haroratini kunduzi 20 -25°C va kechasi 8-10°C qilib turish hamda yagona qilish va sug'orish yóli bilan parvarish qilinadi. Ko'chat 2-3 ta barg chiqarganda dalaga o'tkazishga tayyor bo'ladi. Piyoz ko'chatlari dalaga xuddi urug'dan o'stirilgandagidek o'sha muddatda va qalinlikda o'tqaziladi, keyin qondirib sug'oriladi, Sug'orish ilojlari kechqurin olib borish lozim, bunda o'simlik tez qaddini tiklaydi. Ko'chat qilingan piyozlar yuqori hosil beradi, ammo ko'p mehnat talab qilganidan, bu usul nisbatan kam qo'llaniladi. Piyoz o'stirish uchun eng yaxshi yer maydonlari organik moddalarga boy, muhit ko'rsatkichi PH=6,4-7,9 bo'lgan tuproqlardir. Piyoz yengil, qumoq va begona o'tlardan toza bo'lgan bo'z tuproqlarda yaxshi hosil beradi. Og'ir soz tuproqli, botqoqlashgan va sho'rxak yerlarda piyozdan yuqori hosil olib bo'lmaydi. Agar tuproqning ko'rsatkichi PH=5 bo'lsa, bunday yerlarda piyoz yetishtirib bo'lmaydi. Agar PH=5-5,5 bo'lsa, u holda o'simlikka ohak solish kerak bo'ladi, yoki kuzda yer haydalganda ham tuproqqa ohak solish mumkin. Azotning juda ham ko'pligi piyoz yetilishini sekinlashtiradi va bunday piyozlar qishda yaxshi saqlanmaydi. Agar piyozni ko'chatlab ekiladigan yerda piyozning yuqorida tavsiya etilgan boshqa navlari ham ekilgan bo'lsa, u holda ularni piyoz ekilgan maydonlardan uzoqroq maydonlarga ekgan ma'qul bo'ladi, unga eng yomon o'tmishdosh o'simlik ko'katlar hisoblanadi.

Piyozni har doim bir xil joyga qaytadan ekish unda piyoz uchun zararli bo'lgan kasallik va zararkunandalarning ko'payib ketishiga olib keladi.

Bu esa piyozlarning sifati pasayishiga va hosildorlikning keskin kamayishiga olib keladi. Shuning uchun piyozni ko'chatlab ekilgan joyiga yana bir bor ekish uchun yengil tuproqlarda 3 yil, og'ir tuproqlarda esa 4-5 yil o'tishi kerak bo'ladi. Piyozdan keyin boshqa turdagi qishloq xo'jalik ekinlarini bemalol ekish mumkin bo'ladi. Agar yangi go'ng solingan maydonlarga yoki bedapoya o'rniga piyoz ekilsa, uni parvarishlash qiyinlashadi, chunki piyoz ko'chatlab ekilgan yerni begona o'tlar bosib ketadi – bunday piyozlarning sifati ham uncha yaxshi bo'lmaydi. Begona o'tlarga qarshi preparatlar sepilmasa, bunday maydonlarga ikkinchi yoki uchinchi yillar piyoz ekgan ma'qul bo'ladi.

Piyoz ekilgan maydonlarga esa faqat uch yildan keyingina yana bir marta piyoz ekish mumkin. Piyoz ko'chatlab erta bahorda yoki kech kuzda ekiladi. Ammo piyoz ekishdan oldin yer maydonidagi ekinlar qoldiqlarini yaxshilab tozalash, chirigan go'ng va mineral o'g'itlar solib, yerni chuqur haydash, ekishdan oldin yerni tekislash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ertagi bahorgi piyozni ko'chatlab ekiladigan maydonlarda begona o'tlar miqdorini kamaytirish uchun o'tmishdosh ekin qoldiqlari yig'ishtirib olingach, yer haydaladi, egatlar olinadi va maydon yaxshilab sug'oriladi. Shundan 9-11 kunlardan keyin maysalar unib chiqayotgan maydon chizellanib, begona o't maysalari yo'qotiladi. Piyozni ko'chatlab ekishga tayyor holda keladi.

Piyozchalar orqali ekish Piyozchalarni erta bahorda ekish yaxshi tamoni erta

barra piyoz olish imkoni paydo bo`ladi. Bilamiz bahor faslida sabzavot mahsulotlarga talab juda yuqori bo`ladi va shu talabni qondirish uchun barra piyozlarni erta yetishtirishimiz kerak bo`ladi. Bu piyozchalarni yerga ko`chirgandan keyin 35-kunda tayyor bo`ladi. Mening ilmiy mavzuyim piyoz ekish usullari bo`ldanligi sababli piyozchalarni ham ekib ko`rildi.

Ekish vaqtim 5-mart sanasida piyozchalarni ko`chirib chiqildi. Piyozchalar j tez o`sdi ekan bir haftada ko`k maysalarini ko`rsatib o`sa boshladi. Lekin tez-tezdan suvg`orilib turildi piyozchalari juda namlikga talabchan bo`ladi ekan.

Piyozchalar orqali erta bahorda ekildi (15.03) bunda pizchalari bilan ekilganda erta ko`k barra piyoz tayyor bo`ladi ekan. Ekkan vaqtdan boshlab 35-kunda barra piyoz tayyor bo`ldi. Uning bo`yi uzunligi (40-45 sm) atrofida bo`ldi. Lekin bosh baylash jarayoni juda sust rivojlandi. Faqat bu usulda yaxshi barra piyoz olish va sifatli urug` olish mumkin ekan.

Nóshdan piyoz yetishtirish. Piyoz etishtirishning boshqa usullariga nóshdan, mayda piyozboshlardan, kóchatdan barra piyoz etishtirish kabilar kiradi. Bazan kuzda (oktyabr - noyabr oylarlarida) yoki erta bahorda nósh piyoz (mayda piyozboplar) ekiladi. Nósh piyoz kuzda ektilgani maqbul, chunki mayda piyozboshlarni qishda saqlash kóp chiqitga chikishga olib keladi. Nósh piyoz pushtalarga yoki hosilsiz dalalarga (markyor tugallama bóyicha) bóynigacha botirib ikki qatorlab lenta shaklida ekkiladi. Bunda lentalar orasi 40-60 sm va qatordagi piyozlar orasi 10 sm dan qilinadi.

Nóshdan bosh piyoz yetishtirish uchun ósuv davri mobaynida gulpoyalarni muntazam ravishda yulib turish kerak. Nóshdan ekilgan piyoz urug`idan etishtirilgan piyozga qaraganda begona o`tdan kam bo`ladi va yagonalanmaydi. Boshqa parvarishlash tadbirlari mudatda ótkaziladi. Piyoz parvarishi begona ótlarni yóqotish, qator oralarini ishlash va sug`orishdan iborat. Avgustda yo`gingarchilik boshlanmasdan piyozlar lavlagi kovlagichlar bilan yigib olinadi, so`ng quritiladi, barglari kesilib, katta-kichikligiga karab saralanadi.

Mayda piyozboshlar 18-20°C harorat va 65-70 % havo namligi sharoitida saqlanadi. Kelgusi yili bahorda mayda piyoz (SUN-8) seyalkada qator oralari 45 sm dan qilib ekiladi. Ekish qalinligi va piyozning yirikligiga karab xar bitta metr erga 15-25 tadan piyozcha ekiladi, shunda gektariga 6-8 s dan 10-12 sgacha mayda piyoz ekiladi. Piyozni ósuv davridagi parvarishi, begona ótlarni yóqotish, qator oralarini yumshatish, oziqlantirish, sug`orish va gul poyalarni yulib turishdan iborat.

Barra piyoz yetishtirish. Barra piyoz - vitaminli mahsulot bólgani uchun erta bahorda, hali yangi sabzavotlar yoki vaqtda aholini u bilan taminlashning ahamiyati katta. Barra piyoz dalaga urug` yoki nósh piyoz ekish yóli bilan etishtiriladi.

Barra piyoz urug`dan etishtirilganda urug` avgust o'rtalarida, nóshdan etishtirilganda esa sentyabrning oxiri oktyabrda ekiladi. Piyoz kuzda kókarib chikadi, qishlaydi, aprel oylarida esa hosili yig`ib olinadi.

Piyozlar pushtalarga, 30-40 sm kenglikdagi lentalarga ekiladi, lenta orasiga urug` yoki mayda piyoz sochiladi va tuproq yoki chirindi bilan kómiladi. Yirik piyozboshlar tuproqqa botirib o'tqaziladi. Katta moydonlarda piyoz don-sabzavot seyalkasi 35-40 sm kenglikdagi lentalarga ekkiladi. Bunda selka soshniklari bitta-biriga yaqinroq (7-8 sm) o'rnatiladi. Har gektar erga 25-30 kg urug` yoki 2-4 t mayda piyoz ekiladi. Piyozlar kuzda bitta necha marta sug`oriladi.

Qishki sovuqlar boshlanishidan odin esa pushtalarning ustiga chirigan góng sochib qo`yladi. Bu qishda uni sovuq urishdan saqlaydi, bahorda esa sochgan go`ng o`simliklarga oziq manbayi bólib xizmat qiladi. Barra piyoz ildizi bilan sugurib yig`ishtiriladi. Yaxshi parvarish kilinganda har gektar erdan 350-400 st va undan ko`p hosil olinadi. Bosh piyoz urug`i etishtirish texnologiyasi. Birinchi yil urug`lik piyozbosh etishtirish uchun urug` erta bahorda ekilib, odatdagi texnologiya asosida sifatli parvarish qilinadi. Urug`lik uchun yaxshi etilgan, yirikligi, shakli va rangi navga xos piyozboshlari tanlab olinadi. Urug`lik piyozboshlar 2-8°C haroratda 70-80 havo namligida qorong`i joylarda yaxshi saqlanadi.

Xulosa. Ekinlar ko`chatlab yetishtiriladigan bo`lsa, samarali, natijalar olishga imkon yaratadi. Jumladan, dalada kasalik va zararkunadalar bilan kam ifloslanadi. Ekinlarni parvarish qilish, o`g`itlash va boshqa agrotexnik tadbirlarni olib borish oson bo`ladi. Yoppasiga ekilganga qaraganda bir oy muddatda ertaroq hosil olinadi va tavorboblighi yuqori hamda xaridorgir standart piyoz mahsulotlar olishda ershiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.N Balalashv, Q.O Zemin "Sabzavotchilik" Toshkent, 2009 153-b
2. Aramov M.X, Xasanov X.A va boshqalar " Piyoz navining unuvchanligi ko`rsatkichi" Toshkent, 2008. 45-48-b
3. Bo'riev X.CH. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug`chiligi. Toshkent, 1999. 28 -b.